



RANGLARNI INSON OMILIGA TA'SIRI

A'zamjonov A.A.

Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: rang, psixologiya, issiq rang, sovuq rang, kompozitsiya, me'morchilik, spektr ranglar, axromatik va xromatik ranglar.

Ключевые слова: цвет, психология, теплый цвет, холодный цвет, композиция, архитектура, цвета спектра, ахроматические и хроматические цвета.

Key words: color, psychology, warm color, cold color, composition, architecture, spectrum colors, achromatic and chromatic colors.

Kirish. Dunyo rang-barangliklardan iboratdir. Dunyo sir-sinoatining barchasini anglab bo'lmas sir ekanligidan dalolat beradi. Insoniyat naqadar shu sirlarni bilishga harakat qilmasin, biroq uning tafakkuri o'zlik qilishi, tabiiydir. Pirovardida, bu mo'jizalarni o'rganish uchun insonga cheksiz umr kerak bo'lishi haqida falsafiy xulosaga kelasan, kishi.

Tabiatni kuzatar ekanmiz, bizni qurshab turgan olam turli-tuman ranglardan iborat ekanligini kurib hayratga tushamiz. "Bu ranglarda qanchalik ma'no yotadi?" – deb uyga tolasan. Ajdodlarimiz tabiatning shu sirli olamiga xayratga tushib, asrlar davomida uni o'rganib kelishmoqda. Muqaddas kitobimiz "Qur'oni Karim" da ham rang mo'jizalari haqida quyidagi falsafiy fikrlar bildirilgan: "Olohdan ham go'zalroq rang beruvchi bormi?" yoki "... ranglari turli bo'lgan mevalarni chiqarganimizni ko'rmadingizmi?!", yana "... tog'larning oq, qizil, rang-barang yo'l-yo'lisi ham, tim qorasi ham bordir". "Shunidek odamlar, jonivorlar va chorva hayvonlari orasida ham turli ranglilari bordir"[6:97-98].

Insonning ijtimoiy faoliyatida ranglardan maqsadli foydalaniladi. Chunki ularning inson ruhiyatiga ta'siri qonuniydir. Darvoqe biz turmush tarzimizni ranglar ishtirokisiz tasavvur qila olmaymiz. Bizning kundalik hayotimizni qisman ranglar boshqarishini anglaganimizda ularning mohiyatlariga to'g'ri baho bergan bo'lar edik. Insonning ko'zi doimiy ravishda nur va turli xildagi ranglarga intilib, talpinib yashaydi. U o'zi yashayotgan muhitni ana shu ranglardan foydalanib



o'ziga moslashtirishga intiladi. Bu xuddi kundalik hayotimizda qora bulutlardan so'ng chiqqan quyosh nurini ko'rganda kayfiyatni ko'tarilishga bo'lgan intilishga o'xshaydi. Shuning uchun ham ranglarning inson hayotiga ta'siri qadimdan olim va rassomlar diqqatini tortib kelgan[1:12].

Ta'lim tizimida rangshunos fani o'rgatiladi. Lekin, hozirgi zamon talabiga javob beradigan darslik o'quv-qo'llanma, elektron versiya va boshqalar yetarli emas. Rang tasvir fanining o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari deyarli olib borilmagan. Ajdodlarimizni amaliy san'at turlaridan qoldirgan ma'naviy me'rosiga murojaat qilsak har bir buyum yoki bezak bo'lmasin, ularni shakli, rangi va hajmga ega. Masalan, o'sha bezakni rangi inson psixikasiga turlicha ta'sir etadi, bu ranglar o'ziga xos ramziy ma'noga hamda shifobiy xosiyatga ega bo'ladi. Shunday ekan amaliy san'at bo'lajak usta – muallim rang tasvir fanini chuqur va atroflicha bilishi zarur. Rangtasvir ishlashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir, desak xato bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'quvchilarning estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammalarining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida e'tibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas, balki ularni ko'ra bilishlariga, tevarak-atrofdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o'rgatiladi[9:47].

Bolalarning tasviriy faoliyatdan malaka va ko'nikmalarini shakllantirish omillari T.N.Komarova tomonidan atroflicha ilmiy asoslab berilgan bo'lsa8, bolalarni rasm ishlash texnikasiga o'rgatish muammosi XX asr boshlarida V.M.Bexterev, Korrodo Richchi, Liberti Tedd tomonidan tadqiq etilgan. Ular bolalar ijodiyotining o'ziga xos rivojlanishini ta'kidlagan holda bu jarayonda rasm ishlashga o'rgatishning zarurligiga alohida urg'u berganlar[8:11].

Mashhur rangtasvirchi rassomlarning ko'pchiligi, avvalambor, yetuk qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P.Bryullov, I.I.Shishkin, V.Ye. Makovskiy, V.D.Polenov, I.Ye.Repin, M.A.Vrubel, V.A.Serov, K.A.Korovin, A.Abdullaev, O'.Tansiqboev, Z.Inog'omov, M.Nabiyev, R.Ahmedov, B.Jalolov, A.Mirzayev, A.Ikromjonov, I.Xaydarov kabilar kiradi[2;3].

Natijalar va muhokama. Bugungi kunda rang va uning inson psixologiyasiga ta'sirini o'rganish muhim ilm hisoblanadi. Rangni o'rganishning bosh maqsadi ruhiyat va rangni o'zaro ta'siri, kelib chiqishi, inson hayotida u yoki bu vaziyatlarda, emotsional holatlarda tutgan o'rmini yoritib berishdan iboratdir. Rang barcha jonvorlarga hattoki, eng kichik organizmlarga ta'sir kiladi. Hayvon va hashoratlar ham ranglarni ajratib, ularga ma'lum bir ta'sirlar ko'rsatar ekan. Odatda, professional rassom yoki san'atshunos bo'lmagan insonlar ranglarning



inson psixologiyasiga ta'siri haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaydi. Shunchaki, ranglarga bo'lgan e'tibor ichki hissiyotlarga, shaxsiy dunyoqarashga bog'liq deb hisoblashadi. Aslida qanday?

Tarixda turli xil xarakterlarni, fasl va marosimlarni tasvirlash uchun ranglardan juda ko'p foydalanilgan. Misol uchun, urush va o'limni, mavsumiy bayramlarni ham maxsus ranglar orqali yetkazishga harakat qilingani shular jumlasidandir.

Ranglar, asosan, ikki turga bo'linadi:

- Issiq ranglar,
- Sovuq ranglar.

Bunday deyilishiga sabab, qizil, zarg'aldoq, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatadi, havo rang, zangori, ko'k ranglar muzni, suvning rangini eslatadi. Bunday farqlanish bir oz nisbiy bo'lib, har qanday iliq rang ham o'ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuqroq bo'lib ko'rinishi va aksincha, sovuq rang o'zidan sovuqroq rang yonida iliqroq bo'lib ko'rinishi mumkin. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rngangan bo'lib, u yorug'likning ko'p rangli ekanligini qator tajribalari orqali isbotlaydi va ekranda spektr ranglarni hosil qiladi. Olimlarning aniqlashicha, yettita asosiy spektr ranglarni doirasida rang turlari juda ko'p bo'lib inson ko'zi 1000 taga yaqinini ajratishga qodir[7:18-19].

Ranglarning ma'nosi doim inson psixologiyasiga ta'siri bilan ifodalanadi. ekan, ranglar va ularning xususiyatlari masalasiga jiddiy qarash, har tomonlama tadqiq etish zarur. Chunki, ranglar haqida ma'lumotga ega bo'lish va undan unumli foydalanish har qanday jamiyatning kundalik hayotini ijobiy tomonga o'zgartirishga yordam berishi mumkin.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi qadimdan olim va rassomlar diqqatini tortib kelgan. Sulton Ali Mashhadiyning 1514-yilda yozilgan "Hattotlar va musavvirilar haqida risola"sida aytilishicha, o'sha davr qo'lyozma devonlarni bezatishda qo'llanadigan bezak naqshlar turli-tuman bo'lib, har bir devon tuzuvchining sahifalarga rang va oro berishida o'ziga xos uslubi bo'lgan.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdavsiy, Bobur kabi jahonga mashhur allomalarimiz ranglarning turlari, inson sog'ligiga ta'siri, ma'nolari va boshqa xususiyatlari haqida juda ko'p ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy o'zining "Kitob al Javohir – ma'rifat al Javohir" (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to'g'risida yozga

Ranglarni bilish zamonaviy shahar me'morchiligida muhim o'rin egallaydi. Bir tomondan olib qaragandi bir inshootni inson kayfiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lum bir rang bilan bo'yab qo'yish mumkin, ammo me'moriy qurilmalar ma'lum bir masofadan kuzatilar ekan, ularning ranglari o'z aktivligini yo'kotishini



ham inobatga olish lozim. Masofa uzoklashgan sari issiq ranglar ham havo perspektivasi qonuniyatlariga ko'ra sovuqlashib boradi. Bu esa shuni anglatadiki, zamonaviy arxitektor qurilma loyixasini rejalashtirishda polixromiyaning forma tashkillashuvidagi ishtirokini hisobga olgan holda uning masofadagi o'rni va rang effektlaridan natijali foydalana olishi kerak[5].

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil kiladi. Rangshunoslik bulg'usi rassomlarga ranglarning tabiatda xosil bulishi va tarkalishi masalalarini, ularning atrof-muhit ta'sirida uzgarib kurinishini, buyoklarni tayyorlash va ulardan foydalanish yullarini o'rgatadi. Urta Osiyo ranglar xakidagi ta'limot kadimdan kitob miniatyurasi, nakkoshlik va devorlarga freska pannolar ishlash bilan boglik xolda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik xunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etgan. Shuning uchun xar bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga boglik kimyoviy jarayonlarni o'rgangan. Ranglarning tabiatda kaday xosil bulish va tarkalish xodisalari kadimdan olimlar va rassomlarning dikkatini tortgan. Uygonish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Leon Batista Al'berti, Leonardo da Vinchi va boshkalar rang tasvir xakidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari xakida yozganlar[7].

Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgoltslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. Isaak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rangli ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: Qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havo rang va binafsha ranglar.

Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I.V.Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri ko'proq qiziqtirgan. U «Ranglar haqidagi ta'limot» nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratgan. Iliq (sarg'ish, qizil) ranglar kishida yuqori kayfiyat tuyg'usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar esa mayuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgolts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati – rang tusi, rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko'rsatdi. Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qonun qoida ishlab chiqilgan bo'lib, talaba o'zining o'quv jarayonida va ijodiy



ishida ularga amal qilishi shart. Tabiatdagi ranglar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo'linadi[4:455-456].

Xulosa. Shunday qilib, rang inson kayfiyatiga, xulq-atvoriga ma'lum ma'noda ta'sir o'tkazadi. Ammo bir rangda hamisha bir xil kayfiyat uyg'onadi, uning aniq bir ta'siri bor deyish ham juda mushkul. Balki kuni kelib bu savollarga aniq javob topilar. Hozircha rangning inson kayfiyatiga ta'siri ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, ranglar haqiqatdan ham har bir inson hayotining ob'ektiv bir bo'lagigina emas, balki ruhiyati, kayfiyati va hattoki sog'lig'iga ham o'z ta'sirini ko'rsata oladigan omil ekanligini anglaymiz. Shunday ekan, ranglar va ularning xususiyatlari masalasiga jiddiy qarash, har tomonlama tadqiq etish zarur. Chunki, ranglar haqida ma'lumotga ega bo'lish har qanday inson uchun kundalik hayotida shaxsiy buyumlar tanlash, yashash, o'qish yoki ish joylarini jihozlash, didni shakllantirish hamda mustaqil fikrlashida muhim o'rin egallaydi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G.M. Rangtasvir va kompozitsiya. – Toshkent, 1995.
2. Boymetov B. Qalamtasvir asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 1999.
3. Boymetov B. Qalamtasvir. Darslik 1-qism. – Toshkent, 2006.
4. Fayzullayeva Z. Tasviriy san'at darslarida ranglarning hususiyatlari va bo'yoq turlarini o'rgatish. Scientific progress. Volume 2 | ISSUE 2 | 2021. – B. 454-462.
5. Nabiyev M. Rangshunoslik va Rangtasvir asoslari. – Toshkent, 1995.
6. Omonov D. Ranglarning insoniyat bilan uzviy bog'liqligi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022.
7. Xudayberganov R.A. Rangshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: F.Fulom nashriyati, 2006.
8. Султанов Х.Э. Узлуксиз таълим тизимида ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш (тасвирий санъат дарслари мисолида). Замонавий таълим / Современное образование 2016, 4. – Б. 10-16.
9. Хасанов Р. Мактабда тасвирий санъатни ўқитиш методикаси. – Т.: Фан, 2004.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ranglarning kelib chiqishi, inson psixologiyasiga ta'siri, rangdan amaliy foydalana olish uslublari, ranglar aralashmalari, yorug'lik va ularning qo'llanish sohalari kabi tushunchalarga ega bo'ladilar.

РЕЗЮМЕ

В статье будут такие понятия, как происхождение цветов, их влияние на психологию человека, способы практического использования цвета, цветовые смеси, свет и области их применения.

SUMMARY

In the article, they will have concepts such as the origin of colors, their influence on human psychology, methods of practical use of color, color mixtures, light and their areas of application.